

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MA’MURCHILIGINI TAKKOMILASHTIRISH YO‘LLARI

Mukimov Botir Mirabzalovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston soliq ma‘murchiligidagi muammolar va imkoniyatlarni ko‘rib chiqadi va uning samaradorligini oshirishning amaliy yo‘llarini taklif qiladi. Soliq tizimi daromadlarni shakllantirish va iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ma‘muriyat ichidagi ba‘zi samarasizlik va murakkabliklar soliqlarni optimal yig‘ish va bajarishga to‘sqinlik qiladi. O‘zbekistonda amaldagi soliq ma‘murchiligini ko‘rib chiqish, uning kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatish bilan boshlanadi. O‘zbekistonda soliq ma‘muriyatchiligini yaxshilashning taklif etilayotgan yo‘llari raqamli yechimlarni tatbiq etish, soliq tartib-qoidalarini soddalashtirish va auditga tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda mamlakatda yanada kuchli soliq tizimini va yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga yordam beradigan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: soliq ma‘murchiligi metodologiyasi, soliq ma‘murchiligi yer, yer solig‘i, ko‘chmas mulk, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, resurs soliqlari, soliq, byudjet, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Мукимов Ботир Мирабзалович

Ташкентский государственный экономический университет

независимый исследователь (PhD)

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы и возможности налогового администрирования Узбекистана и предлагаются практические пути повышения его эффективности. Налоговая система играет важную роль в формировании доходов и экономическом развитии. Однако некоторая неэффективность и сложности внутри администрации препятствуют оптимальному сбору налогов и обеспечению их соблюдения. Обзор действующего налогового администрирования в Узбекистане начинается с выявления его сильных и слабых сторон. Предлагаемые способы улучшения налогового администрирования в Узбекистане включают внедрение цифровых

решений, упрощение налоговых процедур и применение риск-ориентированного подхода к аудиту. В исследовании представлены практические рекомендации, которые помогут создать более сильную налоговую систему и более благоприятную бизнес-среду в стране.

Ключевые слова: методология налогового администрирования, налоговое администрирование земли, земельный налог, недвижимость, местный бюджет, доходы местного бюджета, органы местного самоуправления, местные налоги, ресурсные налоги, налог, бюджет, налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые кредиты.

WAYS TO IMPROVE THE TAX ADMINISTRATION OF UZBEKISTAN

Mukimov Botir Mirabzalovich

Tashkent State University of Economics

independent researcher (PhD)

Abstract: This article examines the problems and opportunities in the tax administration of Uzbekistan and suggests practical ways to increase its efficiency. The tax system plays an important role in revenue generation and economic development. However, some inefficiencies and complexities within the administration prevent optimal tax collection and enforcement. The review of the current tax administration in Uzbekistan begins with showing its strengths and weaknesses. Suggested ways to improve tax administration in Uzbekistan include implementing digital solutions, simplifying tax procedures, and adopting a risk-based approach to auditing. The study provides practical recommendations to help create a stronger tax system and a more favorable business environment in the country.

Keywords: tax administration methodology, tax administration land, land tax, real estate, local budget, local budget revenues, local authorities, local taxes, resource taxes, tax, budget, tax rate, tax reporting, tax receipts, tax credits.

Kirish

Soliq ma'muriyati har qanday davlatning fiskal siyosatining muhim jihati bo'lib, davlat operatsiyalari va davlat xizmatlarini qo'llab-quvvatlash uchun soliqlarni samarali va adolatli yig'ish uchun javobgardir. O'zbekistonda, boshqa ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiyalarni rag'batlantirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun samarali soliq ma'muriyati muhim ahamiyatga ega. Biroq, so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, O'zbekiston soliq ma'murchiligi tizimida bir qator muammolar mavjud. O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirishning turli usullarini o'rganishga

qaratilgan. Unda joriy tizimning mavjud kuchli va zaif tomonlari o'rganiladi, e'tibor va islohotlarni talab qiluvchi asosiy yo'nalishlar tahlil qilinadi. Ushbu muammolarni aniqlash va amalga oshirish mumkin bo'lgan yechimlarni taklif qilish orqali tadqiqot O'zbekistonda yanada samarali va shaffof soliq ma'murchiligini rivojlantirishga hissa qo'shishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Soliq ma'murchiligini ustuvor yo'nalishlari sifatida budjet daromadlarini oshirish, soliqqa tortish ma'murchiligini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish qaraladi.

Xalqaro valyuta fondi ekspertlari K.Silvani va K.Baerlarning bu boradagi ilmiy qarashlari quyidagicha: "soliq ma'murchiligi strategiyasi – uzoq muddatli soliq ma'murchiligi operatsiyalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar sifatida baholanib, mamlakatda soliq uzilishi (to'lanishi kerak bo'lgan va kelib tushgan tushumlar o'rtasidagi farq) hajmi va uni kamaytirish uchun qo'llaniladigan choralar keskinligi asosida tayyorlanishi kerak" [1] deya ta'kidlashgan.

A.I.Pogorletskiy va M.V.Keshnerlarni yozishicha: "Soliq ma'muriyatchiligiga raqamlashtirish va axborot texnologiyalarni kiritish soliq organlarida ish yuklamasini kamaytirish, shuningdek soliq turlari, sug'urta badallari bo'yicha qarzlarni kamaytirishga olib kelishi shart"[2].

A.A.Spiridonov va boshqalar quyidagi ta'rifni berishgan:" Soliqlaroptimallashtirish – bu soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini kamaytirishga qaratilgan maqsadli qonuniy harakati bo'lib, soliq imtiyozlari, soliqdan ozod qilish va boshqa qonunchilikda belgilangan usul va qoidalardan foydalanishni o'z ichiga oladi [3].

Bassej va boshqalar fikriga ko'ra, butun dunyo bo'ylab soliq to'lovchilar tajribasini oshirish uchun soliq ma'murchiligi turli xil va murakkab elektron xizmatlar bilan yuqori darajada raqamlashtirilgan. Shunga qaramay, raqamli soliq tizimining muvaffaqiyati uchun muhim bo'lgan omillarni tushunish juda muhimdir [4].

Chowdhury o'z ishida soliq ma'murchiligi tizimidagi eng dolzarb muammolardan birini ko'targan. Uning ta'kidlashicha, soliq to'lashdan bo'yin tovlash dunyoning hamma joyida keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Bir tomondan, ayrim rag'batlantirish mexanizmlari, ikkinchi tomondan, nazorat mexanizmlari odamlarni rag'batlantirish, shuningdek, ularni muntazam ravishda soliq to'lashlari uchun qandaydir bosim yaratish uchun zarur ekanligi ta'kidlanadi[5].

B.B.Ibragimov O'zbekistonda soliq munosabatlari va ma'muriyatchiligi tarixini o'rganish kishilik jamiyati barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarida soliqlar, ularni hisoblash hamda undirish tartiblari u yoki bu turda mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.[6].

A. Smitning fikricha, soliq ma'muriyatchiligida "tinchlik, me'yordagi soliqlar va boshqaruvdagi sabr-toqat asosiy omillar bo'lib, qolgan hamma narsalarni tabiiy jarayonning o'zi bajaradi", degan g'oyani ilgani suradi.[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning soliq ma'murchiligining takomillashtirishning dolzarb masalalari ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. «Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish» deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

2017-2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

Jahon amaliyotida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, tashkiliy – iqtisodiy mexanizmni innovatsion tizimini joriy etish, uni takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish infratuzilmasini samarali tashkil etishdir. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni zamonaviy prinsiplar asosida shakllantirish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini samarali boshqarishda klaster tizimidan foydalanishni rivojlantirishning ilmiy uslubiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat soliq xizmati organlari

faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qaroriga muvofiq soliq xizmati organlarida 2019-yildan boshlab Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasini tashkil etilib, xizmat ko‘rsatishning markazlashgan tizimi sohalar bo‘yicha belgilandi va bugungi kunda 962 ta soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda. Inspeksiyaning tashkil etilishi bilan soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, soliq ma‘murchiligining sifati oshishi natijasida byudjetga tushadigan mablag‘lar miqdori 2022-yil yakuni bilan 88,3 trln.so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan qariyb 2,5 barobarga ko‘p tushum ta‘minlandi. Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida soliq ma‘murchiligini markazlashgan holda hududiy soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi joriy etildi (5-yil davomida QQS to‘lovchilar soni 6,7 mintadan 173,9 mingtaga yoki 26 barobarga, tushum 13,8 trln.so‘mdan 32,8 trln. so‘mga yoki 2,4 barobarga oshgan).

Soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda ko‘maklashish maqsadida “Soliq-servis” davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Soliq to‘lovchilar faoliyati yuzasidan tashkil etiladigan tekshirishlar soni 13 tadan 3 taga qisqartirildi hamda xalqaro amaliyotning muvaffaqiyatli tamoyillarini nazarda tutuvchi soliq tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma tasdiqlandi. Soliq xavflarini inson omilisiz tahlil qilish tizimi ishlab chiqildi va joriy etildi, bu soliq tavakkalchiligini baholash va ularni keyinchalik xavf segmentlariga taqsimlashning vijdonli mezonlari va xizmat ko‘rsatish siyosatini tanlash asosida soliq to‘lovchilarni aniqlash imkonini beradi. Tekshiruvdan oldingi tahlil - 400 ta mezon asosida “Avtokameral” tizimi joriy qilinib, soliq to‘lovchilarga mezonlar oshkora ko‘rinishining yo‘lga qo‘yilishi, soliq to‘lovchilarga xato-kamchiliklarini mustaqil bartaraf qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi va ularda soliq tekshiruvlarini o‘tkazilishining oldi olindi.

Bu imkoniyatdan 49 723 ta soliq to‘lovchilar samarali foydalanib, jami 2,3 trln so‘m qo‘shimcha hisoblab tuzatilgan qayta hisobotlarini taqdim qildilar. Natijada ushbu tadbirkorlik sub’ektlarida hech qanday soliq tekshiruvlari o‘tkazilmadi hamda ularga nisbatan 1,1 trln so‘m moliyaviy jarima qo‘llanilishi oldi olindi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik sub’ektlari soni 541,5 mingtaga yetib, 2018-yilga nisbatan 105,4 mingtaga 24%) ko‘paydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining jami tushumdagi ulushi 2020-yilda 19,8 foizni, 2021-yilda 20 foizni va 2022-yilda 22,1 foizni tashkil etdi. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar 2018-yilga nisbatan 11,0 trln.so‘mga yoki 1,8 barobarga, o‘tgan yilga nisbatan 5,4 trln. so‘mga ko‘payib, 24,3 trln. so‘mni tashkil etdi.

Ma‘lumot uchun qayd etish joizki, 2022-yil yakunlariga ko‘ra, aholini rasmiy ravishda ro‘yxatdan o‘tib qonuniy ishlaydigan qismi 5,1 mln kishini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 1,2 ming kishiga (31 foizga) oshdi. Resurs soliqlari bo‘yicha 2022-yilda

tushumlar 23,9 trln. soʻmni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 11,4 trln.soʻmga, oʻtgan yilga nisbatan esa 0,9 trln. soʻmga oʻsdi.

Soliq organlarida axborot-texnologiyalari sohasida ham sezilarli darajada ijobiy oʻzgarishlarga erishildi. Oxirgi yillarda 41 ta avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy etilib, interaktiv soliq xizmatlari soni 30 tadan 50 taga yetdi.

Yashirin iqtisodiyotni jilovlash hisobiga soliq bazasini kengaytirish maqsadida, zamonaviy soliq maʼmurchiligining yangi instrumentlari - Elektron hisobvaraqq-fakturalari, onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanish, tovarlarni markirovkalash, elektron shartnoma tizimlari joriy etildi. 2022-yilda rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqq-fakturalar soni 38,1 mlntani tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 4,4 mlnta koʻpaydi. Ularda aks ettirilgan tovar aylanmasi 1 402,7 trln soʻm boʻlib, oʻtgan yilga nisbatan 252,6 trln soʻmga (22 %) ortgan boʻlsa, QQS summasi 134,2 trln soʻmni yoki oʻtgan yilga nisbatan 21,0 trln soʻmga (19 %) oshgan. Rasmiylashtirilgan elektron ishonchnomalar soni 2022-yilda 4,5 mln tani tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 805 376 taga (22 %) oshdi. Elektron shartnomalar oʻtgan yilga nisbatan 1,1 mln taga yoki 5 baravarga oshib, 1,4 mln taga yetdi.

Onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanuvchilar soni 145 332 taga yetib, oʻtgan yilga nisbatan 24 983 taga (21%) ortdi. Ular foydalanayotgan ONKT soni 246 267 tani tashkil etib, oʻtgan davrga nisbatan 19 974 taga (9%) koʻpaygan boʻlsa, ularda aks ettirilgan cheklar soni 720,8 mlntaga yetib, oʻtgan yilga nisbatan 336,8 mlntaga (88%) oshdi.

2022-yil davomida 130,6 mingta xoʻjalik subʼektlari 72,9 trln soʻmlik soliq imtiyozlaridan foydalanib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 60 foizga oʻsgan. 2022-yilda “E-ijara” interaktiv xizmatida ijaraga beruvchilar soni 186 219 tani, roʻyxatga olingan shartnomalar soni 325 513 tani tashkil etdi. Ushbu shartnomalarning umumiy summasi 8,5 trln soʻmni, shartnoma summasiga nisbatan hisoblangan soliq summasi 486,1 mlrd soʻmni, shu jumladan daromad soligʻi 240 mlrd soʻmni tashkil etdi. Turar joy egalari bilan talabalar oʻrtasida 44 268 ta ijara shartnomasi tuzilib, ijaraga beruvchilarga 12,7 mlrd soʻmlik soliq imtiyozlari berildi.

Mahsulotlarni raqamli markirovkalash tizimidan foydalanuvchilar soni 2022-yilda 51 377 tani tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 40 264 taga yoki 4,6 baravarga ortdi. Ular tomonidan markirovkalangan tovarlar miqdori 2,0 mlntani tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 1,1 mlnta koʻp yoki 2,2 baravarga ortdi.

2022-yil yakuni bilan mahsulot va xizmatlarning yagona milliy elektron katalogiga kiritilgan tovar va xizmatlar soni 255 683 taga yetib, oʻtgan yilga nisbatan 185519 taga yoki 3,6 baravarga ortdi. my.soliq.uz saytidagi interaktiv xizmatlar boʻyicha 2022 yilda foydalanuvchilar soni 1,4 mlntani tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan 267 584 taga (23%) koʻpaydi. “SOLIQ” mobil ilovasidan foydalanuvchilar

soni 1,8 mlntaga yetib, shundan shaxsi verifikatsiyadan o'tgan foydalanuvchilar soni 835 300 tani tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4742-son qaroriga muvofiq 67 turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga o'zini-o'zi band qilgan fuqaro sifatida ro'yxatdan o'tib, faoliyat yuritish imkoniyati yaratildi (bugungi kunda o'zini-o'zi band qilish faoliyat turlari 102 tani tashkil etadi). Bunda, o'zini-o'zi band qilgan shaxs o'z faoliyati bo'yicha olgan daromadlari soliqqa tortilmasligi belgilanib, ixtiyoriy ravishda BHM 0,5 baravarini to'lagan holda mehnat staji hisobi yuritilishi joriy etildi. Tashqi mehnat migratsiyasi va o'zini o'zi ish bilan band qilgan fuqarolarni ijtimoiy himoyalash instituti yaratilib, rasmiy ro'yxatdan o'tganlar soni qariyb 1,6 mln.ga yetdi. "Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo'nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida" 2022-yil 7-iyuldagi PQ-311 son qarorga muvofiq 2022-yil 1-sentyabrdan boshlab Yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati (taksi) o'zini-o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritildi. 50 908 nafar fuqaro yengil avtotrasportda yo'lovchi tashish faoliyati bo'yicha ro'yxatdan o'tgan. "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 24-fevraldagi PQ-70-son qarori bilan O'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari kasanachilik usulida shug'ullanish mumkin bo'lgan 19 ta yo'nalish bilan to'ldirildi.

Soliq to'lovchilardan soliqlarni undirish jarayoni bo'lib, u to'lov kanallari, muddatlari va soliqlarni hukumatga o'tkazish tartibini o'rnatish. Soliq to'lovchilar va tadbirkorlik sub'ektlarining daromadlari, foydalari yoki soliqqa tortiladigan boshqa faoliyat turlaridan kelib chiqqan holda soliq majburiyatlarini aniqlash. Soliq qonunlari va qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar, jumladan, tekshirishlar, jarimalar va qonun hujjatlariga rioya qilmagan soliq to'lovchilarga nisbatan qonuniy choralar ko'rish. Soliq to'lovchilarga soliq ma'lumoti, soliq qonunchiligi bo'yicha yo'l-yo'riq va soliq to'lovchilarning so'rovlari va tashvishlariga javob berish kabi yordam va yordam ko'rsatish. Soliq ma'murchiligi jarayonlarini soddalashtirish, ma'lumotlar boshqaruvini yaxshilash va soliq to'lovchilarga xizmatlarni yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanish. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash va maqsadli ijro choralarga rioya qilmaslikning mumkin bo'lgan xatarlarini yanada samaraliroq baholash. Soliq to'lovchini o'qitish, rag'batlantirish va soliq hisobotlarini topshirishning soddalashtirilgan tartiblari kabi turli xil vositalar orqali ixtiyoriy rioya qilishni rag'batlantirish. Soliq siyosatini amalga oshirish: soliq ma'murchiligini hukumat belgilagan kengroq soliq siyosati va maqsadlariga moslashtirishni misol qila

olamiz. O‘zbekiston soliq ma’muriyati metodologiyasi muammolarni hal qilish va daromadlarni yig‘ish samaradorligini oshirish maqsadida doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. U soliq to‘lovchilarning qonun hujjatlariga rioya etishini rag‘batlantirish, adolatni ta’minlash va soliq to‘lovchilarga ma’muriy yukni minimallashtirish o‘rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan. Hukumat ilg‘or xalqaro tajribaga amal qilish va umumiy soliq yig‘ish samaradorligini oshirish maqsadida soliq ma’urchiligi tizimini modernizatsiya qilish ustida ishlamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Soliq organlari soliq tartib-qoidalari va shakllarini soddalashtirish, ularni soliq to‘lovchilar uchun qulay va tushunarli qilish ustida ish olib borishlari kerak. Soliq ma'urchiligining zamonaviy tizimlarini, shu jumladan elektron ariza topshirish platformalarini va soliq to'lovchilarga onlayn xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishga investitsiya qilish. Shaffof va foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar: rasmiy veb-saytlar, nashrlar va yordam markazlari orqali soliq to'lovchilarga soliq qoidalari, tartiblari va ularga rioya qilish talablari bo'yicha aniq va tushunarli ma'lumotlarni taqdim etish. Yuqori xavfga ega bo'lgan soliq to'lovchilar va tranzaksiyalarga e'tibor qaratadigan, resurslardan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi va potentsial soliq to'lashdan bo'yin tovlashga yo'naltirilgan tavakkalchilikka asoslangan audit yondashuvlarini amalga oshirish. Soliq siyosati va boshqaruvi bo'yicha fikr-mulohaza va fikr-mulohazalarni to'plash uchun biznes hamjamiyati, professional uyushmalar va soliq ekspertlari bilan yaqinroq hamkorlikni rivojlantirish. Ushbu takliflarni hayotga tatbiq etish orqali O‘zbekiston soliq ma’muriyatining samaradorligi, shaffofligi va adolatliligini oshirishi, natijada soliq qonunchiligiga rioya etilishini oshirish, daromadlarni shakllantirish va umumiy iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Carlos Silvani and Katherine Baer. Designing a Tax Administration Reform Strategy: Experiences and Guidelines, IMF – 1997. 36 pages.
2. Погорлецкий, А.И., & Кешнер, М.В. Цифровизация и налогообложение: опыт стран Европейского союза. Финансы, (11), 58-64
3. Спиридонов А.А, Спиридонов П.А, Никольская Ю.П. (2010) Налоги и налогообложение: Учебное пособие Москва: МГУП.
4. Edidiong Basse, Emer Mulligan, Adegboyega Ojo. A conceptual framework for digital tax administration - A systematic review. // Government Information Quarterly, Volume 39, Issue 4, October 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0740624X22000909>
5. Dhiman Chowdhury. Tax Administration, Control & Performance. // Advanced Issues in Taxation, April 2001. <https://www.researchgate.net/publication/350787314>.
6. Ибрагимов Б.Б. Пути совершенствования налогового администрирования в Республике Узбекистан // XI Международной научно-практической

- конференции. Г.Нурсултан (Казахстан), “Инновационная экономика: глобальные и региональные тренды. 2019.Б. 193-195.
7. А.Смит. «Исследования о природе и причинах богатства народов» М. 1935й Т-2 588-589 б.
8. Нормурзаев, У. (2023). Яширин иқтисодийтни камайтиришда солиқ органларининг аҳамияти. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(2), 215–221. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/66>
9. Нормурзаев, У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. *Экономика и инновационные технологии*, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954
10. Нормурзаев, У. (2023). Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида молия бозорининг долзарб муаммолари тадбиркорликни тенг рақобат шароитларини яратиш ҳамда яширин иқтисодий улушини қисқартириш йўлари. <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19032>
11. Нормурзаев, У. (2023). Солиқ имтиёзлари бериш тартибини такомиллаштириш масалалари. *Iqtisodiyot Va ta’lim*, 24(1), 334–339. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51
12. Нормурзаев, У. (2022). Хукуматимиз томонидан солиқ маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солиқ ислохотлари натижалари. *Иқтисодий ва инновацион технологиялар*, 10(5), 325-330.
13. Нормурзаев, У. Х. (2021). 2021 йилдаги солиқ маъмурчилиги ҳамда солиқ кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан. *Интернаука*, (6-2), 99-100.
14. Нормурзаев, У. (2023). Солиқ имтиёзлари бериш тартибини такомиллаштириш масалалари. *Economics and education*, 24(1), 334-339.
15. Нормурзаев У.Х. Иқтисодий тартибга солишда солиқ имтиёзларининг аҳамияти ва бюджет даромадларини шакллантиришдаги роли // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2014. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/iqtisodiyotni-tartibga-solishda-soli-imtiyozlarininig-a-amiyati-va-byudzheta-daromadlarini-shakllantirishdagi-rol>
16. Нормурзаев Умид Холмурзаевич Солиқ имтиёзлари орқали иқтисодий тармоқлари ҳамда соҳаларида тизимли таркибий ислохотларни қўллаб-қувватлаш сиёсати // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2020. №4 (136). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/soli-imtiyozlari-or-ali-i-tisodiyot-tarmo-lari-anda-soalarida-tizimli-tarkibiy-islo-otlarni-llab-uvvatlash-siyosati>.
17. Нормурзаев У. (2021). Анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в узбекистане. *Economics and Education*, (6), 82–86. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a285